

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ZAMONAVIY TEXNIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

**Ochilova Mohinur**

*Shaxrisabz davlat pedagogika insitituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim muassasalari uzluksiz ta'limning asosiy negizini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayorlashda alohida e'tibor berilishi natijasida uning samaradorligi oshdi. Maktabgacha ta'lim dasturlari qayta ishlandi. Zamonaviy o'quv – uslubiy qo'llanmalar texnik vositalar o'yinchoqlar ishlab chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, ruxiy, jismoniy, shaxsiy, madaniy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratildi. Ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda, ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari kunga –kunga jadal tarzda rivojlanmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari va zamonaviy texnikalar jamiyatdagi har bir shaxsga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu esa insonning texnikalar bilan faol tarzda ishlashga majbur etadi. Ular bilan ishlay olish malakasiga ega bo'lgan insonlar hech qanday qiyinchiliklarga duch kelishmaydi. Buning uchun biz texnik tushunchalar haqida axborot berishni jamiyatning eng kichik bo'g'ini hisoblanmish boladan boshlaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy texnik tushunchalarni shakllantirishdan avval texnika tushunchasining mazmunini bilish lozim.

**Texnika** (techne — mahorat, san'at) — moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning extiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta'sir qilishiga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui. Asosiy vazifasi — inson mehnatini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish. U tabiat resurslaridan samarali foydalanishga, Yer qa'rini, Dunyo okeanini, kosmik fazoni o'zlashtirishga imkon beradi. Inson mehnati natijasida yaratilgan zamonaviy texnikalar ish unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Texnika vositalari doimo takomillashib boradi, yangi texnologiya, yangicha mahsulot i. ch. zaruriyati tug'ilishi bilan yangidanyangi texnika yaratiladi. Texnika tarixi ibtidoiy jamiyatga borib takaladi. Umuman texnika tarixini quyidagi 7 bosqichga bo'lish mumkin: 1— oddiy ishlab chiqarish qurollari va usullari yaratilishi; 2 — murakkabroq ishlab

chiqarish qurollari va usullari yaratilishi; 3 — odam tomonidan boshqariladigan murakkab mehnat qurollari yaratilishi; 4 — manufaktura ishlab chiqarish sharoitida mashina texnikasining yaratilishi; 5 — ilg'or mamlakatlarda bug' dvigateli asosida ish mashinalarining paydo bo'lishi; 6 — elektr energiyasi asosidagi mashinalar tizimining yaratilishi; 7 — avtomatlashtirilgan mashinalar tizimi va kosmik texnikaning taraqqiy etishi, axborotlar texnologiyasi (mas., internet)ning rivojlanishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy texnik tushunchalarni shakllantirish usullariga quyidagilar kiradi:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni orqali;
- Rivojlantiruvchi markazlar asosida tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali;
- Ta'lim-tarbiya jarayonidan tashqaridagi sayr va ekskursiyalar orqali;
- Oilada beriladigan ta'lim va tarbiya orqali;

### **Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni orqali bolalarda zamonaviy texnik tushunchalarni shakllantirish.**

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning asosiy vaqti Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tadi. Tarbiyalanuvchi butun dunyo haqidagi bilimlarini, borliq haqidagi qarashlari va fikrlarini mashg'ulotlar asosida o'rganadi. Zamonaviy texnik tushunchalar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirishda tarbiyachidan juda katta mahorat talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni orqali bolalarga ko'plab texnik vositalarni dastlab xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish bizdan talab etiladi. Bu qoidalar rivojlanish markazlarida, o'yin faoliyatlarida va oilada qaytadan takrorlanib boradi.

Rivojlanish markazlarida o'quv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot o'qish ensiklopedik adabiyotlarni o'qish, ko'rib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarni tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, tajriba jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalaniladi Bolaning rivojlanishi faqat o'quv faoliyatida emas, balki o'yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o'yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e'tibor qaratadi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi didaktik materiallarni to'ldiradi yoki o'zgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini ta'minlaydi. Hafta oxirida bolalarga tanishtirilgan yangi texnik vositalar tahlil qilinib ularni qanday o'zlashtirganligini savollar bilan tarbiyachi bilib olishi zarur bo'ladi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija,

muammolar, yechimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning o'z maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etishi kerak.

Sayr va ekskursiyalar orqali ham biz bolalarga zamonaviy texnik vositalarni yo'l yo'lakay tanishtirib o'tishimiz mumkin. Urmon, dala, daryo, ko'l qirg'oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning diqqatini jalb kiladi. tarbiyachi rahbarligi ostida guruh hamda tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlar turli-tuman materiallar to'plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni urganishga qizik, ish usadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning x.tskshterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadi. Sayr va Ekskursiyalar davomida elektr toki, oqova gaz, gaz quvurlar,i suv va suv quvurlari haqida bolalarga kerakli ma'lumotlarni berib borish maqsadga muvofiqdir

Oilada berilgan ta'lim va tarbiya orqali bolalarga bolalar bog'chasida berilgan bilimlar mustahkamlanib boriladi. Ota onalar bolalarni texnika xavfsizligi qoidalari bilan kundalik hayoti davomida tanishtirib boradilar bu malumotlar tarbiyachi bilan hamkorlikda berilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.